



## HOZIRGI XITOPY TILIDA LOKATIVLARNING OT SO'Z TURKUMI YORDAMIDA IFODALANISH XUSUSIYATLARI

**S.A.Hashimova**

*Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Annotatsiya:** *Mazkuq maqolada hozirgi xitoy tilida lokativ ma'nosidagi so'zlarning yasalish xususiyatlari haqida bayon etiladi. Bunda lokativlarni affiksatsiyaning turli usullari bilan yasalishi bat afsil tahlil qilingan, misollar bilan dalillangan.*

**Kalit so'zlar:** *lokativlar, morfema, iyeroglyph, suffiks, prefix, infiks, postfiks, birikma.*

Xitoy tilida ot so'z turkumiga oid so'zlar bilan ifodalangan lokativlar yo'nalishni, o'rinn-joyni, vaqtni ifodalaydi. Bunda ushbu so'zlarning grammatik funkciyalari ot so'z turkumiga oid bo'lgan boshqa so'zlardan farq qiladi.

Yo'nalishni ifodalovchi lokativlar xitoy tilida 方位词 “fangweici” deb ataladi, ushbu so'zlar ma'lum bir ob'yeckni yoki hodisani ro'y bergan joyini, yo'nalishini, joylashuvini bildiradi. Xitoy tilida yo'nalishni bildiruvchi so'zlar tuzilishi jihatidan ikki xil guruhga ajratiladi: sodda va qo'shma tuzilishga ega bo'lgan yo'nalishni ifodalovchi so'zlar.

Sodda tuzilishga ega bo'lgan lokativlar bir bo'g'inli bo'lib, bularga, masalan, 东 “dong” “sharq”, 南 “nan” “janub”, 西 “xi” “g'arb”, 北 “bei” “shimol”, 里 “li” “ichkari”, 外 “wai” “tashqari” kabi so'zlar kiritiladi. Ushbu so'zlar ko'plab frazeologik birliklarda uchraydi. Xususan, 前怕狼后怕虎 “Qian pa lang, hou pa hu” “Oldinga yursa bo'ridan, ortga yursa yo'lbarsdan qo'rmoq”, “Jur'atsizlik qilmoq”, 上山弯弯腰, 回家有柴烧 “Shangshan wanwan yao, huijia you chai shao” “Tog'da beling og'risa, uyda yoqqani o'tining bo'lar”<sup>19</sup>.

Albatta, mazkur so'zlar adabiy nutqda ham keng qo'lanadi. Masalan:

非本单位工作人员请勿入内<sup>20</sup>。

“Fei ben danwei gongzuo renyuan qing wu runei.”

“Mazkur ishxonaning xodimlari bo'limganlarga ichkariga kirish ta'qiqlanadi”

万里长城西起甘肃，东至山海关<sup>21</sup>。


“Wanli changchen xiqi Gansu, dongzhi shanghai guan.”

“Buyuk xitoy devori g'arbda joylashgan Gansu provinciyasidan boshlanib, sharqiy qismi esa tog'lar va dengiz bilan tutashgan.”

<sup>19</sup>故播刘。实用现代汉语语法。-北京, 2012年。-50页。

<sup>20</sup>张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆, 1982年。-32页。

<sup>21</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982年。-22页。





Ushbu guruhgaga oid so'zlar 朝 “chao” “-ga”, 向 “xiang” “-ga”, 往 “wang” “-ga”, 在 “zai” “-da; -da joylashgan”, 从 “cong” “-dan; -dan boshlab”, 对 “dui” “-ga” va boshqa shu kabi ko'makchilar bilan birga qo'llanadi. Masalan:

汽车在大雨中不停地往前跑，我们很快就到达了目的地方<sup>22</sup>。

“Qiche zai dayuzhong bu tinged wangqian pao, women hen kuai jiu dadaole mudi difang.”

“Moshina qattiq yomg'irda oldinga qarab tinimsiz yurar edi va biz tez orada ko'zlangan joyimizga yetib bordik.”

新盖的这几座单元楼都是北朝南的。

“Xingaide zhejizuo danyuan dou shi bei chao nande.”

“Bu bir nechta yangi qurilgan uylarning hammasi shimol va janubga qaragan.”

Mazkur so'zlar gapda ega va hol vazifasini bajaradi. Bunda bu so'zlar doimo antonim so'zlar bilan birga qo'llanadi. Masalan:

玉兰姐上有公婆，下有儿子，还是个街道干部，整天没有空闲的时候。

“Yulanjie you gongpo, xia you erzi, haishi ge jiedao ganbu, zhengtian meiyou kongxiande shihou.<sup>23</sup>”

“Yulan opaning bir tomonda qaynonasi, boshqa tomonda esa o'g'li bor, uning ustiga doimo ishda, kun davomida dam olishga vaqt yo'q.”

我搞的这项改革，上有领导的指点，下有群众的支持，成功是有把握的<sup>24</sup>。

“Women gaode zhexian gaige, shangyou lingdaode zhidian, xia you qunzhongde zhichi, chenggong shi you bawode.”

“Biz olib borayotgan ushbu islohotlarimiz tepadan belgilangan, jamoat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va biz albatta bularni amalga oshirishda omadga erishamiz.”

Bu guruhdagi so'zlar takroriy shakda ham qo'llanadi, masalan:

敌人闯进她的家里，上上下下，里里外外翻了个够，

可是他们连一粒粮食也没有找到<sup>25</sup>。

“Diren naojin tade jiali, shangshang xiaxia, lili waiwai fanle gegou, keshi tamen lian yili liangshi ye meiyou zhaodao.”

“Dushmanlar uning uyiga bostirib kirib bordi, tashqarini, ichkarini, hamma joyni qidirib, hattoki bir dona gurichni ham topa olmadilar.”


Yo'nalishni bildiruvchi so'zlar ot, otli birikmadan oldin yoki keyin ham qo'llanadi, masalan: 上个月 “shangge yue” “o'tgan oy”, 上个世纪 “shangge shiji” “o'tgan asr”,

<sup>22</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 51页。

<sup>23</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982 年。- 27页。

<sup>24</sup>实话实说。商务印书馆, 2009年。- 77页。

<sup>25</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 53页。





，三个月内 “sange yue nei” “uch oy ichida”，本世纪中 “ben shiji” “mazkur asrda”，地上 “dishang” “yer ustida”，地下 “dixia” “yer tagida”，地里 “dili” “yer ichida”，楼上 “loushang” “binoning ustida”，楼下 “louxia” “binoning tagida”，楼里 “louli” “binoning ichida”，报上 “baoshang” “gazetada”。

Ushbu so'zlarda qo'llangan 上 “shang” “ustida” va 里 “li” “ichkarida” yengil ohangga ega bo'ladi.

Bir bo'g'inli lokativlardan oldin 以 “yi”，之 “zhi”，yoki ulardan keyin 边 “bian”，面 “mian”，头 “tou” so'zlarini qo'llagan holda qo'shma lokativlarni hosil qilish mimkin. Bular o'z navbatida yo'nalishni, vaqtini, o'rinn-joyni ifodalashi mumkin. 边 “bian”，面 “mian”，头 “tou” suffiksleri bu holda yengil ohangga ega bo'ladi. Albatta, bu guruhga oid bo'lgan barcha so'zlar ham ushbu prefik va suffikslar bilan birga qo'llanila olmaydi<sup>26</sup>. Dissertatsiyamizning 2-ilovasida berilgan jadvalda suffiks va prefikslarni yo'nalishni bildiruvchi lokativlar bilan qo'llanila olish variantlari ko'rsatilgan<sup>27</sup>. Bunda “+” belgisi birikmani hosil qilishni bildirsa, “-” belgisi birikmani hosil qilish mumkin emasligini ifodalaydi. Jadvalda ko'rsatilgan birikmalardan tashqari yana 中间 “zhongjian” “o'rtada”，当中 “dangzhong” “-dan biri, o'rtasida”，地下 “dixia” “yer tagida” kabi va boshqa birikmalar ham mavjud. Undan tashqari, yo'nalishni ifodalovchui ba'zi so'zlar birgalikda kompozitsiya usuli orqali ham birikmalarni hosil qila oladi. Masalan, 东 “dong” “sharq” va 北 “bei” “shimol” orqali 东北 “dongbei” “shimoliy-sharqiy”，西 “xi” “g'arb” va 北 “bei” “shimol” orqali 西北 “xibei” “shimoliy-g'arbiy”，shuningdek，东南 “dongnan” “janubiy-sharqiy”，西南 “xinan” “janubiy-g'arbiy” kabilar hosil bo'ladi. Shunga e'tibor berish kerakki, xitoy tilida 南东 “nandong”<sup>28</sup>，南西 “nanxi”<sup>29</sup>，北东 “beidong”<sup>30</sup>，北西 “beixi”<sup>31</sup> deb bo'lmaydi.

Qo'shma tuzlisihga ega bo'lgan ushbu so'zlar gapda ega, aniqlovchi, to'lidruvchi va hol vazifasida qo'llanadi.

Masalan, ega vazifasida:

<sup>26</sup>实话实说。商务印书馆，2009年。- 85页。

<sup>27</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆，1982年。- 35页。

<sup>28</sup>南东 so'zma-so'z: “janubiy-sharqiy”，lekin xitoy tilida avval 东 “sharq”，so'ngra 南 “janub” so'zleri qo'llanadi, ya'ni “sharq-janub” ko'rinishda.

<sup>29</sup>南西 so'zma-so'z: “janubiy-g'arbiy”，lekin xitoy tilida avval 西 “g'arb”，so'ngra 南 “janub” so'zleri qo'llanadi, ya'ni “g'arb-janub” ko'rinishda.

<sup>30</sup>北东 so'zma-so'z: “shimoliy-sharqiy”，lekin xitoy tilida avval 东 “sharq”，so'ngra 北 “shimol” so'zleri qo'llanadi, ya'ni “sharq-shimol” ko'rinishda.

<sup>31</sup>北西 so'zma-so'z: “shimoliy-g'arbiy”，lekin xitoy tilida avval 东 “sharq”，so'ngra 北 “shimol” so'zleri qo'llanadi, ya'ni “g'arb-shimol” ko'rinishda.





那所大学周围的环境很优美，西边是一个天然湖，东边是一座小山，后边还有一片松林<sup>32</sup>。

“Nasuo daxue zheweide huanjing hen youmei, xibian shi yige tianranhu, dongian shi yizuo xiaoshan, houbian hai you yi pian songlin.”

“Ana u universitet yon-atrofi juda chiroyli, g'arbiy tomonida tabiiy ko'l, sharqiy tomonida bitta tog', orqa tomonida esa o'rmon bor.”

Fe'llar va ko'makchilar bilan birga qo'llanganda ushbu so'zlar to'ldiruvchi vazifasini bajaradi, xususan, 在 “zai”, 向 “xiang”, 朝 “chao”, 往 “wang”, 从 “cong”, 自 “zi”, 由 “you” va boshqalar. Masalan:

中文杂志都在上头，外文的都在下头。

“Zhongwen zazhi dou zai shangtou, waiwende dou zai xiatou.”

“Xitoy tilidagi jurnallarning barchasi tepada joylashgan, chet tilidagi jurnallar esa pastda.”

To'ldiruvchi vazifasida qo'llanganda albatta 的“de” yordamchi so'zi ham qo'llanishi kerak. Masalan:

前边的楼都是新建的<sup>33</sup>。

“Qianbiande lou dou shi xinjiande.”

“Ro'paradagi ana u binolarning hammasi yangi qurilgan.”

下边的书都不怕压, 而上边的仪器怕压<sup>34</sup>。

“Xiabiande shu dou bu pa ya, er shangbiande yiqi pa ya.”

“Pastdagi kitoblarning barchasiga bosim ta'sir etmaydi, lekin tepadagi texnika jihozlariga bosim qattiq ta'sir etadi.”

东头（的）那一片平房是工人宿舍<sup>35</sup>。

“Dongtou (de) na yipian pingfang shi gongren sushi.”

“Sharqdagi ana u kvadrat shakdagi bino ishchilarning turar joyi.”

中间（的）那张油画是他的作品。

“Zhongjian (de) na zhang youhua shi tade zuopin.”

“O'rtadagi ana u rasm unga tegishlidir.”

以上的论述说明了三个问题<sup>36</sup>。

“Yihou de lunshu shuomingle sange wenti.”

“Keyingi baxs-munozara uchta savolga aniqlik kiritdi.”

那架飞机向西北方向飞去了。

“Na jia feiji xiang xibei xiang feique.”


<sup>32</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 56页。

<sup>33</sup>实话实说。商务印书馆, 2009年。- 340页。

<sup>34</sup> Gao Wenda, Wan Lijin. Cihui zhishi. - Jinan, 2006. - 175 ye.

<sup>35</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 56页。

<sup>36</sup>Ko'rsatilgan asar. -56 b.





“Ana u samolyot shimoliy-sharqqa uchdi.”

Hol vazifasida qo'llanganda yordamchi 的 “de” so'zini ishlatish shart emas. Misol tariqasida quyidagi gaplarni keltiramiz:

王阿姨, 请您里边坐一会儿<sup>37</sup>。

“Wang ayi, qing nin libian zuo yihuir.”

“Xonim Wang, marhamat ichkariga kirib bir oz o'tirib turing.”

我们以后应加强联系<sup>38</sup>。

“Women yihou ying jiaqianglianxi.”

“Biz keljakda hamkorligimizni yanada mustahkamlashimiz kerak.”

我们快走吧, 他们已经前头走了<sup>39</sup>。

“Women kuaizou ba, tamen yijing qiantou zoule.”

“Tezroq bora qolaylik, ular allaqachon oldinga qarab ketishdi.”

Xitoy tilida yo'nalishni ifodalovchi lokativlar o'rtasida “之间”, “之中”, “之内”, “之外” kabilar doimo ot, olmosh, sifat, fe'l va sondan keyin qo'llanadi. Masalan: 三天之内 “santianzhinei” “uch kun ichida”, 十里之外 “shilizhinei” “o'n lidan uzoq masofada”。

Lokativ ma'nosiga ega bo'lgan qo'shma otlar 边 “bian”, 头 “tou”, 面 “mian” suffikslaridan oldin qo'llanadi, bu holda o'rtada 的 “de” qo'llanmaydi va hosil bo'lgan so'z yengil ohangga ega bo'ladi. Ya'ni bularning ma'nosini huddi [ot + bir bo'g'inli yo'nalishni ifodalovchi so'zlar] konstruktsiyasiga ega bo'lgan so'z birikmalari bilan bir xildir. Masalan, 桌子里边 “zhouzi libian” va 桌子里 “zhouzili”. Bu ikkita birikmaning ma'nosini bir xil, ya'ni “stolning ichida” demakdir. Yoki yana bir misol: 墙上边 “qiang shangbian” va 墙上 “qiangshang”. Bu ikkita birikmaning ma'nosini bir xil, ya'ni “devorning ustida” demakdir.

上 “shang” va 由 “you” yordamida hosil bo'lgan so'zlar urg'u ostida o'qiladi va ot va yo'nalishni ifodalovchi so'z orasida 的 “de” qo'llanadi. Hosil bo'lgan qo'shma birikmaning ma'nosini [ot + bir bo'g'inli yo'nalishni ifodalovchi so'zlar] konstruktsiyasiga ega bo'lgan so'z birikmasidan farq qiladi. Masalan:

墙上边

工厂里头

屋子里面

“qiang shangbian”

“gongchang litou”

“wuzi limian”

墙上的上边

工厂的里头 “gongcha

屋子的里面

“qiangde shangbian” “ngde litou”

“wuzide limian”

<sup>37</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982年。- 76页。

<sup>38</sup>实话实说。商务印书馆, 2009年。- 211页。

<sup>39</sup>张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆, 1982年。- 91页。





报上边	抽屉里边	便条上头
“bao shangbian”	“chouti libian”	“biantiao shangtou”
报的上边	抽屉的里边	便条的上头
“baode shangbian”	“choutide libian”	“biantiaode shangtou”

Yuqorida keltirilgan olti xil misollar guruhidagi birinchi so'z birikmalari ma'lum bir joyning istalgan qismlarini bildiradi. Masalan, 墙上边 “qiang shangbian” “devorning istalgan joyida”, 屋子里面 “wuzi limian” “xona ichkarisidagi istalgan joyida”, 工厂里头 “gongchang litou” “fabrikaning istalgan joyida”, 报上边 “bao shangbian” “gazetaning istalgan joyida” ma'nolariga ega. Yuqorida keltirilgan olti xil misollar guruhidagi ikkinchi so'z birikmalari ma'lum bir joyning aniq qismlarini bildiradi. Masalan, 墙的上边 “qiangde shangbian” so'z birikmasi “devorning aniq ko'rsatilgan qismi”ni anglatadi, 屋子的里面 “wuzide limian” “xona ichkarisidagi aniq ko'rsatilgan qismi”ni bildiradi, 报的上边 “baode shangbian” “gazetaniqng aynan bosh qismida” ma'nosiga egadir. Bu holat faqat “li” va “shang”ga xosdir. Boshqa suffikslarda bu xususiyat kuzatilmaydi.

Yo'naliishni ifodalovchi lokativlar gapda o'rinn-joyni, yo'naliishni, sharoitni, jarayonni va vaqtini ham ifodalashi mumkin. Bunda ko'pincha "...上" "...shang", "...中" "...zhong", "...下" "...xia" qo'llanadi.

“...上” “...shang”ning ma'nosи “在...方向” “zai...fangxiang”, ya'ni “...jigatidan”, “...tomonidan” ma'noga ega. Masalan:

经济上的损失一定要补回来<sup>40</sup>。

“Jingjishangde suoshi yiding yao buhuilai.”

“Iqtisodiyotda sodir bo'lgan zararni albatta qoplash kerak”.

“...下” “...xia”ning ma'nosи “在...条件下” “zai...tiaojianxia”, ya'ni qandaydir sharoitda sodir bo'ladigan harakat, hodisani bildiradi.

这种金属高温下也不易熔化<sup>41</sup>。

“Zhezhong jin shu gaowenxia ye bu yi suohua”.

“Bu xildagi tilla yuqori haroratda ham o'zgarishi qiyin.”

“...中” “...zhong”ning ma'nosи “...jarayonida, ...-da, ...paytda”, masalan:

假期中, 他为大家做了不少好事<sup>42</sup>。

“Jiaqizhong, ta wei dajia zuole bushao haoshi.”

“Ta'tilda u barcha uchun ko'p yaxshi ishlar qildi.”

<sup>40</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 58页。

<sup>41</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982 年。- 85页。

<sup>42</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 59页。



O'rın-joyni ifodalovchi lokativlar xitoy tilida 处所词 “chusuoci” deb ataladi. Bular ham ot va otli birikmadan hosil bo'ladi. O'rın-joyni ifodalovchi lokativlar gapda ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifasini bajaradi.

Ushbbu gurhdagi so'zlar ega vazifasida qo'llanganda ma'lum bir joyni ifodalaydi, gapni boshida qo'llanadi. Masalan:

**市中心十分繁华<sup>43</sup>。** (Ega vazifasida 市中心)

“Shizhongxin shifen fanghua.”

“Shahar markazi juda gavjum.”

**会场上安静极了<sup>44</sup>。** (Ega vazifasida 会场)

“Huichangshang anjingjile.”

“Majlislar zalida sukunat.”

**这里街道路面广阔，房屋整齐<sup>45</sup>。** (Ega vazifasida 这里)

“Zheli jiedao lumian kuangkuo, fangwu zhengji.”

“Bu yerdagi ko'cha va yo'laklar keng, uylar tartibona joylashgan.”

Shu bilan birga o'rın-joyni ifodalovchi lokativlar 是 “shi” “bor, mavjud bo'lmoq”, 有 “you” “bor”, “mavjud bo'lmoq” fe'lli gaplarda, qo'llanadi. Masalan:

**北京的北面是连绵不断的山，北京的南面是露色的太平原<sup>46</sup>。** (Ega vazifasida 北京的北面)

“Beijingde beimian shi lianmian bu duande shan, beijingde nanmian shi lusede taipingyuan.”

Pekinning shimoli bir-biri bilan tutashgan tog'lar bilan o'ralgan, janubi esa yashil tekislikdir.

**杭州是有名的花园城市。** (Ega vazifasida 杭州)

“Hanzhou shi youmingde huayuan chengshi.”

Hanzhou bu mashhur gullar shahridir.

**你身上，脸上都是泥。摔掉了吗？** (Ega vazifasida 身上，脸)

“Ni shenshang, lianshang dou shi ni? Shuaidiaolema?”

Sizning ustingizda ham, yuzingizda ham loy bor. Yiqilib tushdingizmi?

**我家的后面有一个大花园。** (Ega vazifasida 我家的后面)

“Wo jiade houmian you yige dahuayuan.”

“Mening uyimning orqasida katta bog' bor.”


**真遗憾，我这里没有这方面的资料。** (Ega vazifasida 我这里)

<sup>43</sup>张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆，1982年。- 97页。

<sup>44</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 61页。

<sup>45</sup>实话实说。商务印书馆，2009年。- 251页。

<sup>46</sup>朱德藩。语法讲义。商务印书馆，1982年。- 91页。





“Zhen yihan, wo zheli meiyou zhe fangmiande ziliao.”

“Afsus, menda bu to'g'risida ma'lumot yo'q.”

Bundan tashqari bu guruhdagi so'zlar mavjudlikni ifodalovchi boshqa gaplarda ham qo'llanadi. Masalan:

房子的两边摆着鲜花<sup>47</sup>。(Ega vazifasida 房子的两边)

“Fangzide liangbian baizhe xianhua.”

“Xonaning ikki tomoniga ham tirik gullar terib qo'yilgan.”

远处传来姑娘们的欢笑声。(Ega vazifasida 远处)

“Yuanchu chuanlai guniangmende huanxiaosheng.”

“Uzoqdan qizlarning kulgusi eshitildi.”

天上飞过去一群鸟<sup>48</sup>。(Ega vazifasida 天上)

“Tianshang feiguoqu yiqun niao.”

“Osmonda bir gala qushlar uchib ketdi.”

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 61页。
2. 实话实说。商务印书馆, 2009年。- 252页。
3. 张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆, 1982 年。- 97页。
4. 朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982 年。- 91页
5. Gao Wenda, Wan Lijin. Cihui zhishi. - Jinan, 2006. - 175 ye.

<sup>47</sup>故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 61页。

<sup>48</sup>实话实说。商务印书馆, 2009年。- 252页。

